

QIMMATLI QOGOZLAR BOZORI SAVDO TIZIMLARINI

TAKOMILLASHTIRISH

Parmonova Gulrux Ozodovna

O`zbekiston Respublikasi bank moliya akademiyasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada korporativ qimmatli qog'ozlar bozorining moliya bozoridagi roli negizida savdo tizimlarini takomillashirish masalalari tadqiq qilingan. Uning iqtisodiy taraqqiyotdagi ahamiyati ochib berilgan. Korporativ sektor rivoji, milliy iqtisodiyot ravnaqi va aholi turmush farovonligini oshirishda korporativ qimmatli qog'ozlar bozori ishtiroki tadqiqi natijalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: moliya bozori, qimmatli qog'ozlar, aksiya, obligatsiya, korporativ qimmatli qog'ozlar, emitent.

KIRISH

Moliya bozori rivoji iqtisodiy taraqqiyotga ham uzviy ravishda xizmat qiladi. Iqtisodiyot rivoji esa ijtimoiy sohaning taraqqiyotini ham jadallashtiradi. Ketma-ketlik oxir oqibat inson qadri yuksalishini ta'minlaydi. Bunday o'ziga xoslik shundaki, institutsional va investorlarning moliya bozoridagi faolligi aholi daromadlilikiga ham xizmat qilishi ham ayni haqiqat.

ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy tadqiqotlarga ko'ra iqtisodiyotning istiqbolli rivojlanishi moliya bozorining rivojiga bevosita bog'liq. R.King va R.Levinlarga ko'ra "moliya bozorining rivojlanish darajasi va iqtisodiy rivojlanishning uzoq muddatli sur'atlari o'rtasida barqaror uzviy bog'liqlik mavjud" [2]. Xuddi shu fikrni A.Demirgyuch-Kunt va R.Levaynlar ham qat'iy qo'llab-quvvatlab "yuqori darajada rivojlangan moliya tizimi asosida iqtisodiyot uzoq muddatli gorizontda tezroq rivojlanadi" [3], deya ta'kidlaydi.

Aynan yuqoridagilardan kelib chiqqan holda moliya bozorining eng asosiy instrumentlarini jamlagan qimmatli qog'ozlar bozorining rivoji iqtisodiyotni moliyalashtirishda muhim ahamiyatga ega. Bunda korporativ qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlantirish xususiy biznes orqali kompleks ijtimoiy-iqtisodiy



taraqqiyotga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Qimmatli qog'ozlar bozori emitent nuqtai nazaridan asosan ikkita katta guruhga bo'linadi. Ular davlat yoki suveren qimmatli qog'ozlar bozori va korporativ qimmatli qog'ozlar bozoridir. Ayrim manbalarda munitsipal qimmatli qog'ozlar ham ajratib ko'rsatiladi. Mahalliy hokimiyatlar ham davlatning hududiy boshqaruv organi hisoblanganligi uchun ular tomonidan muomalagachiqarilgan qimmatli qog'ozlarni ham davlat qimmatli qog'ozlariga kirish mumkin, deb hisoblaymiz. Davlat va korporativ qimmatli qog'ozlar bozorining umumiy hamda farqli jihatlarini quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval Davlat va korporativ qimmatli qog'ozlar bozorining o'zaro farqli jihatlarini

Korporativ sektor uchun	Iqtisodiyot uchun	Aholi turmush farovonligi uchun
Faoliyatni moliyalashtirishni diversifikatsiyalash imkonini beradi	Iqtisodiyotni moliyalashtirishdava kapital jalb qilishda o'zaro raqobatni ta'minlaydi	Aholi jamg'armalarini iqtisodiyotga yo'naltirish variantlari ortadi.
Aksiyalar orqali arzon moliyaviy resurs jalb qilish mumkin	Arzon moliyaviy resurs yuqori iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi.	Dividendlar va ularga qo'shimcha tarzda kursdagi farq bo'yicha ham daromad olish imkonini paydo bo'ladi
Obligatsiyalar vositasida kreditlardan tashqari qarz mablag'lari jalb qilish imkoniyati paydo bo'ladi	Qarz instrumentlari bozori rivojlanishiga erishiladi va kreditlash natijasidagi inflyatsiyaning oldi olinadi	Qat'iy belgilangan daromad tufayli depozitlarga qo'shimcha tarzda qo'yilmalarni diversifikatsiyalash imkoniyati yuzaga keladi
Xalqaro obligatsiyalar xorijiy kapital jalb qilish va xalqaro kredit tarixi shakllanishidamuhim instrument sanaladi	Kapital jalb qilish borasida ham global raqobatga kirishiladi va xalqaro moliya bozorida mamlakat nufuzi ham ortib boradi	Yirik loyihalar amalga oshirilishi natijasida aholi bandligi daromadliliigi o'sishi kuzatiladi

Keltirilgan jadvaldan ko'rinib turibdiki, korporativ qimmatli qog'ozlar muomalasi avvalo korporativ sektor rivoji, so'ngra butun milliy iqtisodiy taraqqiyot va aholi turmush farovonligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Korporativ qimmatli qog'ozlar faoliyatni moliyalashtirishda har tomonlama diversifikatsiyalash imkonini beradi. Bu o'z navbatida iqtisodiyotni moliyalashtirishda fond bozori va kredit

bozori o'rtasida keskin raqobatni yuzaga keltiradi. Natijada esa aholi jamg'armalarini iqtisodiyotga jalb qilish yo'nalishlari, tanlov imkoniyatlari ortadi. Yuqori rentabellik va investitsion jozibadorlikning ta'minlanishi hisobiga oddiy va imtiyozli aksiyalarning nominaldan yuqori joylashtirilishi aksiyadorlik jamiyatlarida qo'shilgan kapitalning ham ortishiga xizmat qiladi. Natijada kapital bahosi nihoyatda arzonlashadi. Arzon kapital jalb qilish orqali iqtisodiyotda yuqori o'sishga erishiladi. Milliy iqtisodiyotni moliyalashtirish imkoniyatlari nihoyatda torligi, inflyatsiya yuqoriligi sharoitida korporativ emitentlarda arzon kapital jalb qilish nihoyatda chegaralangan.

Bunga ma'lum darajada iqtisodiyotning faqatgina kreditga tayanib qolganligi, imtiyozli kreditlash hajmining yuqoriligi sabab bo'lmoqda, deya olamiz. Iqtisodiyotda xususiy sektorning ulushini muntazam oshirib borish oxir-oqibat aksiyalar vositasida arzon kapital jalb qilishga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida aholining dividendlar va ularga qo'shimcha tarzda kursdagi farq bo'yicha ham daromad olish imkoniyatlari oshib borishini ta'minlaydi.

Obligatsiyalar nuqtai nazaridan tadqiqotlarga ko'ra korporativ emitentlar tomonidan "Korporativ obligatsiyalar, birja obligatsiyalari, tijorat obligatsiyalari va yevroobligatsiyalar" muomalaga chiqarib kelinmoqda. Shu bilan birga bugungi kunda yashil korporativ obligatsiyalar emissiyasi ham faol qo'llanilmoqda. Mazkur moliyaviy instrument ham jahon bozorida faol qo'llanilayotganligi ahamiyatlidir.

Korporativ obligatsiyalar muomalasi kengayib borishi kreditlardan tashqari qarz instrumentlari vositasida kapital jalb qilish imkoniyatlarini yaxshilaydi. Obligatsiyalar bozori rivojlanishi kreditlash, ayniqsa imtiyozli kreditlash natijasidagi inflyatsiyaning oldi olinadi. Boshqa tomondan obligatsiyalar bo'yicha qat'iy daromadning oldindan belgilab qo'yilishi aholining depozitlardan tashqari qarz vositalariga ham investitsiya kiritishlarida o'ziga xos yo'nalish bo'lib xizmat qiladi. Mazkur jihat ham aholining qimmatli qog'ozlar bozoriga investitsiyalarini emitentlar bo'yicha diversifikatsiyalash imkonini beradi. Boshqa tomondan korporativ obligatsiyalarni aholi o'rtasida ochiq joylashtirish, istiqbolda aksiyalarni ommaviy joylashtirishda ham o'ziga bosqichlardan biri ekanligini ham shu o'rinda alohida qayd etib o'tishimiz lozim.



XULOSA VA MUNOZARA

Korporativ qimmatli qogʻozlar muomalasi nazariy jihatlariga doir tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

Birinchi, moliya bozorida banklar va qimmatli qogʻozlar bozorining oʻzaro raqobatning taʼminlanganligi iqtisodiy taraqqiyotning jadallashuviga xizmat qiladi. Chunki bunda har ikkala tomon innovatsion rivojlanishga intiladi.

Ikkinchi, davlat qimmatli qogʻozlari birinchi navbatda davlat budjeti defitsitini qoplash maqsadida muomalaga chiqariladi, shuningdek infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish uchun uzoq muddatli tartibda ham chiqaradilar. Korporativ qimmatli qogʻozlar esa uzoq muddatli loyihalarni moliyalashtirish va amalga oshirish uchun muomalaga chiqariladi.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Oʻzbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish toʻgʻrisida”gi Qonuni, 16-modda. 2014 yil 6 may.
2. King, R.G. Moliya va oʻsish / R.G. King, R. Levine // Iqtisodiyotning choraklik jurnali. – 2013. – V. 108. – № 3. – B. 717–737.
3. Levine, R. Moliya va oʻsish: nazariya va dalillar. Iqtisodiy oʻsish boʻyicha qoʻllanma / R. Levine // Iqtisodiy oʻsish boʻyicha qoʻllanma. – 2015. – V. 1. – 12-bob. – B. 865–934.
4. Cournede, B. Finance and inclusive Growth / B. Cournede, O. Denk, P. Hoeller // OECD Iqtisodiy siyosat hujjati. – 2015. – № 14. – 46 b.
5. Butikov I.L. Qimmatli qogʻozlar bozori. Darslik. – T.: “Konsauditinform”, 2011. – B. 17 (496).
6. Рашидов, Д. (2023). Давлат-хусусий шерикликда таваккалчилик турлари. Scienceweb academic papers collection.
7. www.ziyonet.uz